



## **XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI**

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 11 - may

VI-61-94-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagи “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6275-sonli farmonning tumandagi ijrosi bo‘yicha tuman hokimligi Bolalarni himoya qilish sho‘basi mudirining hisoboti to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-avgustdagи “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6275-sonli Farmonining ijrosini ta’minlash maqsadida, Bolalar masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining faoliyati yuzasidan tuman hokimligi Bolalarni himoya qilish sho‘basi mudirining axboroti xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi majlisida eshitilganligi va ko‘rib chiqilganligini hamda bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagи “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6275-sonli Farmoni ijrosi yuzasidan tuman hokimligi Bolalarni himoya qilish sho‘basi mudiri B.Shamuradovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

#### **2. Tuman ichki ishlар bo‘limi (S.Choriyev):**

- bolalar o‘rtasida nazoratsizlik, qarovsizlik, huquqbazarliklar va boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarning oldini olish, ularga imkon tug‘diruvchi sabablarni va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish choralarini ko‘rish yuzasidan qat’iy nazorat o‘rnatsin.

#### **3. Angor tumani hokimligi Bolalarni himoya qilish sho‘basi mudiri (B.Shamuradov):**

- voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasiga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta’minlash;

- voyaga yetmaganlar tomonidan huquqbazarliklar yoki boshqa noxush holatlar sodir etilishining sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etishda davlat organlari va tashkilotlari hamda mahalla fuqarolar yig‘inlari bilan yaqindan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

- oilalardagi o‘zaro munosabat, ijtimoiy muhit, farzandlar tarbiyasi kabi holatlarni o‘rganish, nosog‘lom muhit shakllangan oilalarga ma’naviy ta’sir ko‘rsatish borasidagi ishlarni kuchaytirish;

- davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, ijtimoiy sheriklikni va fuqarolik jamiyatni institutlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamkorlikni rivojlantrish chora-tadbirlarini ishlab chiqish vazifasi yuklatilsin.

#### **4. Tuman maktabgacha va mактаб та’лими бо‘лими (Sh.Avazov), tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘лими (U.Qosimov), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘лими (D.Shanayev)larga:**

- tizimda ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishdagi ishlarni va voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilik holatlarini tahlil qilish, umumta’lim maktablarida haftaning har payshanba kuni o‘tkaziladigan profilaktik tadbirlar doirasida hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalar haq-huquqlarining himoya qilinishi bo‘yicha doimiy monitoring yuritish;

- sababsiz dars qoldirayotgan o‘quvchilarning ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar bilan nisbatan tushuntirish ishlarini muntazam ravishda olib borish;

- ta’lim-tarbiya sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya sifatini ta’minlash;

- bolalarni kasbiy va sport to‘garaklariga jalb etish, ular o‘rtasida turli ko‘rik-tanlovlardan o‘tkazish orqali bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil qilish hamda iste’dodli yoshlar faoliyatini keng targ‘ib qilish, yoshlarda millatlar va dinlararo muomala madaniyati, umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni shakllantirib borishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish;

- o‘quvchilarning, ayniqla, tarbiyasi og‘ir va profilaktik hisobda turgan bolalarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida ularning turli to‘garak va sport mashg‘ulotlariga jalb qilinishi, bu boradagi hisobotlarning haqqoniyligini ta’minlash;

- amalga oshirilayotgan ishlarini bolalar masalalari bo‘yicha komissiyaning yig‘ilishlarida muntazam muhokama qilib, mavjud kamchilik va muammolarni amalda

bartaraf etib borish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar begilash vazifalari yuklatilsin.

5. Amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan mutasaddi rahbarlar **har chorak yakuni** bilan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritib borsin.

6. Tuman hokimligi matbuot xizmati, “Angor yog‘dusi” gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Qodirova) zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**Q.Mardonov**